Fuqarolik huquqida shartnoma tushunchasi,

shartnomaviy sharh va uning ahamiyati







Shartnoma o‘ziga xos huquqiy munosabat va yuridik fakt sifatida majburiyatlarning vujudga kelishini ta’minlovchi asoslardan hisoblanadi. Majburiyatlar turli-tuman yuridik faktlar natijasida vujudga keladi. Lekin majburiyatlarni vujudga keltiruvchi eng muhim va keng tarqalgan vosita shartnomalar hisoblanadi. Shartnomadan boshqa yuridik faktlar majburiyatlarning vujudga kelishida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lsa, ular shartnomalar kabi asosiy o‘rinni egallaydi.

Masalan, bir tomonlama bitimlarda bir shaxsning irodasi asosida majburiyat vujudga keladi va bunday majburiyatlar fuqarolik huquqida va amaliyotda u qadar koʻp uchramaydi. Shu bilan birga, bir tomonlama bitimlar majburiyat tushunchasining an'anaviy qolipiga mos kelmasligini ham ta'kidlab oʻtish lozim. Ya'ni, majburiyat tushunchasidagi qarzdor va kreditor oʻrtasidagi huquqdorlik va majburlik formulasi bir tomonlama bitimlarda aynan ifodalanmaydi.

Majburiyatni vujudga keltiruvchi boshqa asoslardan farq qilib, faqat shartnomalardagina majburiyat formulasi toʻliq va aynan oʻz ifodasini topadi. Majburiyat formulasiga muvofiq, kreditor – qarzdor va talab qilish huquqi – majburlik (harakatni amalga oshirish yoki harakatdan tiyilish) ning oʻzaro nisbati har bir shartnomaning oʻzagini tashkil etadi. Chunki shartnomaga muvofiq bir taraf ikkinchi tarafga tovarni mulk qilib berish, ishni bajarish, xizmat koʻrsatish majburiyatini olsa, ikkinchi taraf haqni toʻlash va ijroni qabul qilish majburiyatini oladi.

Agar Fuqarolik kodeksida har bir shartnomaga berilgan ta'rifga e'tibor qaratadigan boʻlsak, ular quyidagi qolipga muvofiq shakllantirilganini koʻrishimiz mumkin: bir tarafning ikkinchi taraf foydasiga amalga oshiradigan harakatlari, ikkinchi tarafning ana shu harakat uchun amalga oshiradigan muqobil harakati (bir tomonlama shartnomalarda mazkur qolipdagi ikkinchi tomonning harakati talab qilinmaydi). Mazkur harakatlar yuridik tilda majburiyat deb nomlanadi.

Majburiyat va shartnoma tushunchalari oʻrtasidagi nisbatni tahlil qilib, "har qanday shartnoma – majburiyat, har qanday majburiyat – shartnoma emas" degan aksiomani taklif qilish mumkin. Chunki majburiyat tushunchasi shartnoma tushunchasiga qaraganda kengroq hisoblanadi. Fuqarolik kodeksining 363-moddasiga koʻra, sud shartnoma shartlarini sharhlashda undagi soʻz va iboralarning asl ma'nosini e'tiborga oladi. Shartnomaning sharti aniq boʻlmasa, uning asl ma'nosi uni boshqa shartlarga va butun shartnomaning ma'nosiga taqqoslash yoʻli bilan aniqlanadi. Mazkur modda muhim ahamiyatga ega, chunki juda koʻp sabablar bilan shartnomani sharhlash zarurati vujudga keladi, bu koʻpincha shartnoma shartlarini aniqlashtirish jarayonida, shartnomani tuzish chogʻida yoʻl qoʻyilgan kamchilik oqibatida yuzaga keladi. Shuningdek, bunday zarurat shartnomada foydalanilgan atamalar, iboralar har xil ma'noga ega boʻlganda va turlicha tushunchalarni keltirib chiqarganda tugʻiladi. Yuqoridagi moddada gap shartnoma shartlarining sud tomonidan sharhlanishi ustida borayotgan boʻlsa-da, zarur boʻlganda taraflarning oʻzlari ham mazkur modda qoidalarini qoʻllashi uchun hech qanday toʻsqinlik yoʻq. Kelishuvga erishib boʻlmagan holda nizo sud tartibida hal etiladi.

Shartnomani sharhlashning mohiyatini anglashda huquqni sharhlash bilan bogʻliq qoidalardan foydalanish ham mumkin. Ma'lumki, qonun va boshqa normativ-huquqiy aktlarni, har bir normani hayotda toʻgʻri qoʻllash, ya'ni ular bilan jamiyatda, kishilar oʻrtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish muhimdir. Buning uchun har bir tatbiq etiladigan huquqiy normaning mohiyati va mazmunini toʻgʻri tushunib, anglab olish va sharhlash juda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Huquqiy normalar hayotda toʻgʻri qoʻllanib, ular orqali davlat organlari, korxona va tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar oʻrtasida turli ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi. Shuning uchun huquqiy normani hayotga tatbiq etishda shu huquqiy norma bilan hal qilinadigan ishni har taraflama oʻrganish va toʻgʻri kvalifikatsiya qilish kerak. Soʻngra fuqarolar va yuridik shaxslar oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalarni sharhlash lozim.

Huquqiy normalarni sharhlash masalasi quyidagi uchta muhim jihatni oʻz ichiga oladi:

1) tatbiq etiladigan huquqiy normalarni sharhlovchi subyektlarni aniqlash (bular: davlat hokimiyatining oliy va mahalliy vakillik organlari; ijro etuvchi organlar: Prezident, Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlari, turli vazirliklar va davlat qoʻmitalari; huquqni muhofaza qiluvchi organlar: sud, prokuratura, adliya, ichki ishlar idoralari va boshqalar; jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar);

2) tatbiq qilinadigan huquqiy normalarning mazmunini aniqlash uchun mantiqiy, grammatik, tarixiy va sistematik usullar qoʻllaniladi;

3) tatbiq etilayotgan normalarning hajmi boʻyicha va yuridik kuchiga qarab sharhlash.

Qoidaga koʻra, shartnomani sharhlashda eng asosiy masalalardan biri uning shartlarini sharhlash hisoblanadi. Bu holat shartnomaning tuzilganligi va uning haqiqiyligini aniqlashda koʻriladi. Qolaversa, shartnoma sharti buzilganda fuqarolik-huquqiy javobgarlikni tatbiq etishda ham shartnoma shartlarini sharhlashga murojaat qilinishi mumkin. Biroq shartnoma shartlarini sharhlash muammosi boshqa turdagi nizolarda ham vujudga kelishi ehtimoli bor. Masalan, vindikatsion da'voni qoʻllashda ashyoni oldi-sotdi qilish shartnomasining nizoli sharti mohiyatini aniqlash, korporativ nizoda esa sud tomonidan aksiyadorlik bitimining mazmuniga e'tibor qaratish lozim boʻladi.

Shartnomani sharhlash muayyan huquqiy nizolarni yechishda hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻladi. Ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi hamda shartnomalar tuzish borasidagi dispozitivlik taraflarga turli xildagi shartnomalar tuzish huquqini beradiki, bu borada huquqni qoʻllovchi oldida bir qator muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bu eng avvalo tuzilgan shartnoma aynan qaysi turdagi huquqiy munosabat ekanligini aniqlash va unga nisbatan qaysi qonun normalarini qoʻllash muammosidir. Masalan, hozir shartnoma tuzishda taraflar bir vaqtning oʻzida koʻplab shartnoma elementlarini qamrab olishi mumkinki, bu o'z navbatida ularga nisbatan nafaqat fuqarolik qonunchiligini, balki ma'muriy, moliyaviy, mehnat va soliq qonunchiligini ham qoʻllashni qiyinlashtiradi.

Zero, koʻplab shartnomalar muayyan turdagi faoliyatni ham tartibga soladi. Bu esa oʻz navbatida tegishli faoliyat turi uchun soliq toʻlovlari stavkasini aniqlash muammosi bilan bogʻliq. Shu bois taraflar faoliyat turi uchun belgilangan soliq stavkalarini kamroq toʻlash maqsadida shartnoma nomi va predmetini kam soliq toʻlanadigan faoliyat turiga oid shartnoma shaklida rasmiylashtirishi mumkinki, bunday holatda huquqni qoʻllovchi toʻgʻri yondashuvdan chalgʻishi mumkin. Binobarin, bu vaziyatda asosiy va hal qiluvchi oʻrinni fuqarolik qonunchiligi egallaydi. Chunki aynan fuqarolik qonunchiligi shartnomaga huquqiy bahoni belgilashda asosiy manba hisoblanadi. Amaliyotda huquqni qoʻllash bilan bogʻliq bunday vaziyatlar uchrab turar ekan, talabalarda shartnomalarni sharhlash ko'nikmalarini ham shakllantirish zarur. Masalan, keyingi paytda provayderlik xizmatlari, ringtonlarni telefonlarga musiqa sifatida joylashtiruvchilar faoliyatini vositachilik shartnomasining predmeti sifatida talqin etish hollari uchraydi. Shuningdek, chakana oldi-sotdi shartnomasi va maishiy pudrat shartnomasini aralashtirish holatlari mavjud. Bu vaziyatlar sud, prokuratura va boshqa huquqni qoʻllovchilar tomonidan turlicha talqin etiladi. Jumladan, prokuratura tomonidan bir turdagi shartnoma vositachilik shartnomasi deb baholansa, sud tomonidan intellektual mulk obyektidan foydalanishga oid litsenziya shartnomasi sifatida talqin etilishi mumkin.

FKning 363-moddasida shartnomani sharhlashga doir qoidalarni qoʻllashga nisbatan yagona tavsiya va koʻrsatmalar mavjud boʻlmagani sababli ham iqtisodiy munosabatlar subyektlari oʻrtasidagi shartnomaviy munosabatlarni turlicha talqin etish holatlari yuzaga kelmoqda. Biroq mazkur norma amalda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan huquqiy muammolarni bartaraf etishga xizmat qilishidan kelib chiqilsa, shartnomalarni talqin etishda uning talablarini toʻgʻri qoʻllay bilish muhim. Mazkur normada qayd etilishicha, sud shartnoma shartlarini sharhlashda undagi soʻz va iboralarning asl ma'nosini e'tiborga oladi. Shartnomaning sharti aniq boʻlmasa, uning asl ma'nosi uni boshqa shartlarga va butun shartnomaning ma'nosiga taqqoslash yoʻli bilan aniqlanadi. Demak, tegishli shartnomani sharhlashda talaba shartnomaning shartini uning asl ma'nosini shartnomada nazarda tutilgan butun ma'nosi bilan solishtirib aniqlaydi va tegishli normani qoʻllash boʻyicha xulosaga keladi. Agar mazkur usul orqali ham shartnomaning nomi, shartlari va mazmunini aniqlashning imkoni boʻlmasa, taraflarning haqiqiy umumiy xohish-irodasi shartnomaning maqsadini hisobga olgan holda aniqlanishi kerak.

Bunda barcha tegishli holatlar, shu jumladan, shartnoma tuzish oldidan olib borilgan muzokara va yozishmalar, taraflarning oʻzaro munosabatlarida qaror topgan amaliyot, ish muomalasi odatlari, taraflarning keyinchalik oʻzlarini qanday tutgani e'tiborga olinishi zarur. Sud plenumi qarorlarida muayyan turdagi shartnomalarga oid normalarni sharhlash va talqin etishga oid aniq qoidalar berilganini kuzatish mumkin. Masalan, Oliy xoʻjalik sudi plenumining 2015-yil 27-noyabrdagi "Lizing munosabatlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlari normalari iqtisodiy sudlar tomonidan qoʻllanishining ayrim masalalari haqida"gi 289-qarori

3-bandi ikkinchi-uchinchi xatboshilariga koʻra, sudlar nazarda tutishlari kerakki, qonunga koʻra yer uchastkalari va boshqa tabiiy obyektlar, shuningdek, muomaladan chiqarilgan yoki muomalada boʻlishi cheklangan boshqa mol-mulk lizing obyektlari boʻlishi mumkin emas. Bunday mol-mulk lizing obyekti sifatida shartnomada koʻrsatilgan boʻlsa, shartnoma oʻz-oʻzidan haqiqiy emas deb hisoblanadi. Ushbu mol-mulklar boʻyicha tuzilgan lizing shartnomasining haqiqiy emasligi oqibatlarini qoʻllash sudning huquqi ekanligidan kelib chiqib, ushbu masala sudlar tomonidan muhokama qilinishi mumkin. Shuni inobatga olish lozimki, korxona, mulkiy kompleks, bino, inshoot lizing obyekti sifatida lizing oluvchiga topshirilgan taqdirda, lizingga berilgan muddatga yer uchastkasining ana shu koʻchmas mulk joylashgan va undan foydalanish uchun zarur qismiga boʻlgan foydalanish huquqi ham lizing oluvchiga oʻtadi.

Shartnoma shartlari taraflarning xohishi bilan belgilanadi, tegishli shartning mazmuni qonun hujjatlarida koʻrsatib qoʻyilgan hollar bundan mustasno. Shartnoma sharti taraflar kelishuvida boshqacha tartib belgilab qoʻyilmagani tufayli qoʻllaniladigan norma (dispozitiv norma)da nazarda tutilgan hollarda taraflar oʻzaro kelishib uning qoʻllanishini bekor qilishlari yoki unda nazarda tutilganidan boshqacha shartni belgilashlari mumkin. Bunday kelishuv boʻlmaganda shartnoma sharti dispozitiv norma bilan belgilanadi. Agar shartnoma shartlari taraflar yoki dispozitiv norma bilan belgilab qoʻyilgan boʻlmasa, tegishli shartlar taraflar oʻrtasidagi munosabatlarga nisbatan qoʻllanilishi mumkin boʻlgan ish muomalasi odatlari bilan belgilanadi. Hozir FK taraflarning erkin kelishuvini shunga oʻxshash sobiq sovet qonunchiligida mavjud boʻlgan planli rejalashtirilganlik, titul roʻyxatlanganlik kabilar bilan almashtirishga yoʻl qoʻymaydi, shubhasiz bu qoidadan ayrim cheklanishlarga ham yoʻl qoʻyadi. Shunday shartnomalar ham mavjudki, ularni tuzish majburiydir. Masalan, FKning 459-moddasiga binoan bergan buyurtmasi mahsulot yetkazib beruvchi (ijrochi) tomonidan qabul qilingan davlat buyurtmachisi uchun davlat kontrakti tuzish shart hisoblanadi. Davlat kontraktini tuzish qonun hujjatlarida belgilangan hollardagina va davlat kontraktini bajarish tufayli mahsulot yetkazib beruvchi koʻrishi mumkin boʻlgan barcha zararni davlat buyurtmachisi qoplagan taqdirdagina mahsulot yetkazib beruvchi uchun majburiy boʻladi. Bunday shart davlat korxonasiga tatbiq etilmaydi. Shunga koʻra, FKda qandaydir cheklangan miqdorlarda planli tuzilish mavjud, ammo qonunchilik qaysi vaqtda bunga yoʻl qoʻyilishini aniq belgilab qoʻyadi.

Bu oʻrinda birgina talab: shartnoma shartlari qonunga zid boʻlmasligi lozim. Shartnoma erkinligining bu koʻrinishlari asosiylari hisoblanadi. Qoʻshimcha belgilarini ham ajratib ko'rsatish mumkin:

a) kontragentni erkin tanlash;

b) shartnoma shaklini erkin belgilash;

v) taraflarning kelishuviga muvofiq shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish.

Bu oʻrinda bir necha cheklashlar mavjud boʻlib, taraflar shartnoma tuzayotganlarida ularning shartnomasi uchinchi shaxslarning, misol uchun aksiyadorlarning huquqlarini buzmayotganini muhokama qilishlari kerak boʻladi. Bu xil shartnomalar ham asosiy shartnomalar shaklida tuzilishi darkor.

Shartnomaning o'zgartirilishi yoki bekor boʻlishiga asos taraflardan birining bir tomonlama talabi boʻladi. Agarda shartnomani taraflarning kelishuvi bilan oʻzgartirish yoki bekor qilish mumkinligi faktning aksi tasdiqlanmaguncha shu faktni yuridik toʻgʻri deb topish boʻlsa, shartnomani bir tomonlama oʻzgartirish yoki bekor qilishga FKda, boshqa hujjat va shartnomada belgilab qoʻyilgan hollardagina yoʻl qoʻyiladi. Birinchi holatda sudga murojaat qilish talab qilinmaydi, ikkinchi holatda esa bu muqarrar. Subyektlar boʻyicha cheklashlar koʻp hollarda u yoki bu shartnoma ishtirokchilarining aniq belgilab qoʻyilganligi bilan ifodalanadi. Masalan, chakana oldi-sotdi shartnomasida sotuvchi tadbirkorlik faoliyatini olib boruvchi shaxsdir. Bu holatda subyektning huquqiy maqomi ushbu xil shartnomalarning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. FKning 505-moddasida belgilanganidek, yuridik shaxs xoʻjalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida oʻziga qarashli boʻlgan ashyoni, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan boʻlmasa, mulkdorning roziligi bilan hadya etishga haqli. Bu qoida hamma mulkka nisbatan, jumladan, ko'char mulkka ham tatbiq

qilinadi (505-modda 1-qismi, 177-modda 3-qismi). Bu cheklash qiymati katta bo‘lmagan odatdagi sovg‘alarga taalluqli emas, ya’ni uncha qimmat bo‘lmagan oddiy hadyalar mulkdorning roziligisiz berilishi mumkin. Bunday qoidaning belgilanishidan yana bir maqsad tadbirkorlik bilan shug‘ullanishdan maqsad foyda olish ekanligi nuqtayi nazaridan yuridik shaxs(tijoratchi tashkilot)ning mulkni hadya qilishi, ya’ni bepul boshqa shaxsga o‘tkazishi shubhali hisoblanib, u haq evaziga tuzadigan shartnomalarni xaspo‘shlab o‘tish orqali soliq va boshqa to‘lovlarga chap berishning oldini olishdir.

Shu bois bunday bitimlar yuridik shaxslarning maqsadiga xilof deb qaralishi va sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Shuningdek, bu qoida poraxo‘rlikdan, yuridik shaxslarning mol-mulkini talon-toroj qilishdan ogohlantiradi va shartnoma ishtirokchilari va kreditorlar manfaatiga xizmat qiladi. Ushbu toifadagi cheklashlarga u yoki bu faoliyat bilan shug‘ullanish uchun subyekt litsenziya olishi darkorligi ham kiradi. FKda ko‘p hollarda, masalan, sug'urtalovchiga nisbatan 925-moddada, moliya agentiga nisbatan 750-moddada va boshqa moddalarda aniq belgilab qo'yilgan normalar mavjud. Kontragentni tanlashdagi cheklashga misol qilib FKning umumiy mulkdagi ulushni imtiyozli sotib olish belgilangan 224-moddasini keltirish mumkin. Bunga ko‘ra qolgan mulkdorlar imtiyozli sotib olish huquqini amalga oshirishdan voz kechsa, sotuvchi o‘z ulushini har qanday shaxsga sotishga haqli bo‘ladi. Xuddi shunday huquq FKning 553-moddasida ham belgilagan, unga ko‘ra yangi muddatga mulk ijarasi shartnomasi tuzishda ijaraga oluvchi imtiyozli huquqqa ega. Ko‘p hollarda shartnoma bo‘yicha, masalan, uy-joyni ijaraga berish shartnomasida majburiy taraf bo‘lib fuqaro qatnashadi (FKning 600-moddasi 2-qismi). Yuridik shaxslar ayrim turlarining kelishuv munosabatlarida ham FK cheklashlar belgilaydi. Misol uchun, FKning 852-moddasi 3-qismiga ko‘ra molmulk davlat organi ishonchli boshqaruviga berilishi mumkin emas. Bu talab buzilganda shartnoma haqiqiy bo‘lmaydi. Fikrimizcha, ushbu moddaning 3-qismiga o‘zgartish kiritish lozim, “davlat” degan so‘zdan keyin “va o‘zini o‘zi boshqarish” so‘zlarini qo‘shish maqsadga muvofiq bo‘ladi va bu molmulk o‘zini o‘zi boshqarish organining ishonchli boshqaruviga berilishining oldini oladi.

FKning ommaviy shartnomaga bag‘ishlangan 358-moddasi quyidagi normalarni birlashtiradi:

- tashkilotning iste’molchiga tegishli tovarlarni berish, xizmatlar ko‘rsatish, uning uchun tegishli ishlarni bajarish imkoniyati bo‘la turib ommaviy shartnoma tuzishdan bosh tortishiga yo‘l qo‘yilmaydi;
- bunday tashkilot ommaviy shartnoma tuzishda bir shaxsni boshqa shaxsga nisbatan afzal ko‘rishga haqli emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- sud yordamida shartnoma tuzishga majburlash imkoniyati (FKning 377-moddasi);
- FKning 358-moddasiga zid shartlar ahamiyatsiz;
- O‘zbekiston Respublikasi hukumati qonunda nazarda tutilgan hollarda ommaviy shartnomalarni tuzish va bajarishda taraflar uchun majburiy bo‘lgan qoidalar chiqarishi mumkin.

Bu holatda o‘ziga xos mutlaq huquqiy munosabat mujassam. Ommaviy shartnomada aniq belgilab qo‘yilgan majbur taraf bor va undan noma’lum miqdordagi shaxslar ko‘zda tutilgan harakatlarni bajarishni talab qilishga haqli. FKning 358-moddasi shunday tartibni faqat iste’molchilarga nisbatan ko‘zda tutadi. Tashkilot faqat u ishni yoki xizmatni bajara olmasligini isbotlab bersagina shartnoma tuzishni rad etishi mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, shartnomani sharhlash deganda undagi so‘z va iboralarni, taraflarning asl maqsadini hamda shartnoma shartlarini tahlil qilgan holda shartnomani tushunish va talqin etish borasida yuzaga kelgan nizoni hal qilish uchun shartnomani izohlash tushuniladi.

Muhabbat ZOKIROVA,
Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi